

## BADIY MATNDA IRONIYA VA IRONIK MAZMUN IFODALASH VOSITALARI

*Tursunova Sojidaxon,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
tayanch doktoranti*

*O'zMU katta o'qituvchisi, p.f.n. N.Alavutdinova taqrizi asosida*

## IRONY AND MEANS OF EXPRESSING IRONIC CONTENT IN A LITERARY TEXT

*Tursunova Sojidakhon, PhD student of Tashkent State  
University of Uzbek Language and Literature named after  
Alisher Navoi*

*Based on the review of N. Alavutdinova, associate professor  
of the National University of Uzbekistan, candidate of  
pedagogical sciences*

## ИРОНИЯ И СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ИРОНИЧЕСКОГО СОДЕРЖАНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

*Турсунова Соджидахан, докторант Ташкентского  
государственного университета Узбекского языка и  
литературы имени Алишера Навои*

*По отзыву Алавутидиновой Н.А., старшего преподавателя  
УЗМУ, кандидата педагогических наук*

**Annotatsiya.** Tildagi juda ko'p badiiy vositalar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'nolarni ifodalaydi, so'zlovchining biror bir maqsadi uchun mo'ljallangan bezakni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi tilning estetik vazifasini yuzaga chiqarishda, umuman olganda, badiiy matnda yozuvchining maqsadini aniq namoyish qilishida o'rni beqiyosdir. Ironiya mana shunday vositalardan biri hisoblanadi. Ironiya nutqimizni ta'sirchan qilish bilan birga, uni qo'pol so'zlardan saqlaydi. Ironiya nafaqat salbiy ma'no (kesatiq, piching, shama, sarkazm), aksincha salbiy bo'yoqdorlikka ega so'z orqali ijobiy ma'noni (erkalash, suyish) ifodalashga ham xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ironiya, kinoya, piching, kesatiq, situativ va gradual ironiya, shama, istehzo va boshqalar.

**Abstract.** Many artistic means in the language, in addition to their meaning, express figurative meanings, serve to reveal a decoration intended for some purpose of the speaker. The figurative use of words plays an invaluable role in revealing the aesthetic function of language, in general, in clearly demonstrating the writer's purpose in a literary text. Irony is one of such means. Irony not only makes our speech expressive, but also protects it from rude words. Irony serves not only to express a negative meaning (cut, slur, hint, sarcasm), but also to express a positive meaning (caress, affection) through words with a negative connotation.

**Key words:** irony, sarcasm, sarcasm, sarcasm, situational and gradual irony, allusion, sarcasm, etc.



[sojidatursunova0525@gmail.com](mailto:sojidatursunova0525@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0009-7194-1987>

Tel:(93) 673 93 98

**Аннотация.** Многие художественные средства в языке выражают помимо своего значения метафорические значения, они служат для выявления декорации, предназначенной для целей говорящего. Употребление слов в переносном смысле играет несравненную роль в раскрытии эстетической функции языка, в целом, в наглядной демонстрации замысла писателя в художественном тексте. Ирония – один из таких инструментов. Ирония не только делает нашу речь эффективной, но и не дает ей быть грубой. Ирония служит для выражения не только отрицательного значения (намек, оскорбление, намек, сарказм), но и положительного значения (ласка, поцелуй) посредством слов с отрицательным подтекстом.

**Ключевые слова:** ирония, сарказм, высота тона, врезка, ситуативная и постепенная ирония, намек, врезка и др.

**Kirish.** Ironiya estetikaning kategoriyasi bo'lib, qadimgi notiqlik an'analaridan kelib chiqadi. Bu XIX asrning so'nggi choragidan beri alohida rivojlanib keladi. Ironiyada so'zlovchi voqeani jiddiy bayon qilganday bo'ladi, ammo til vositalarini ko'chma ma'noda qo'llab, biron shaxs yoki voqelik ustidan kesatq bilan kuladi. Boshqacha qilib aytganda, so'zlovchi nutqining zaminida haqiqiy ma'noga zidlanuvchi asosiy maqsad – kulgi yoki kinoya ma'nosi yashiringan bo'ladi.

Nutqda so'z va iboralarning kesatq yoki piching orqali o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatish usuli ironiya deyiladi [8].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Badiiy matn hamda uning tahlilida ironiya, ironiyaning turlari, ironik mazmun ifodalovchi vositalarni o'rganish dolzarb mavzu bo'lib, o'zbek tilshunosligida ham, xorijiy manbalarda ham ilmiy izlanishlar olib borilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, o'zbek tilshunosligida A.Mamajonovning "Tekst lingvistikasi", M.Qurbonova, M.Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi", M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari", "Badiiy matn lingvopoetikasi", "Badiiy matnning lisoniy tahlili", M.Mirtojiyevning "Lingvistik metaforalar tasnifi", S.Muxamedova, M.Saparniyozovanning "Matn lingvistikasi" va boshqa bir qator ilmiy adabiyotlar; D.Andaniyozovanning "Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi", E.Ibragimovanning "O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari", Y.Odilovning "O'zbek tilida enantiosemiya", O.Shofiyevning "Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)", Sh.Abdurahmonovning "Kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar" dissertatsiyalari, jahon tilshunosligida Knox N. "The word "irony" and its context", Mueske D.C. "The compass of

irony" kabi ilmiy manbalarda ironiya va uning turlari haqida ma'lumot keltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'zbek tilshunosligida badiiy matnlarda ironiyaning qo'llanilishiga doir mukammal ilmiy-nazariy tadqiqot ishi bo'lmasada, ammo keyingi yillarda amalga oshirilgan bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida bu masalaga jiddiy to'xtalgan. Ana shunday tadqiqotlardan biri E.Ibragimovanning "O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari" dissertatsiyasida ironiya masalasiga batafsil to'xtalgan.

So'nggi vaqtlarda ironiya muammosi ko'proq chet el tilshunoslari diqqatini o'ziga jalb qilmoqda. Bu haqda D.Myukke shunday yozadi: "Ko'plab yozuvchilar uchun ironiya uslubiy yoki dramatik tur emas, balki hozirgi paytning umumiy yo'nalishi sifatida shakllangan fikrlash qobiliyatidir" [6]. Ko'rinib turibdiki, tadqiqotchi ironiyaga nisbatan kengroq, jiddiy va tanqidiy munosabatda bo'lishni alohida ta'kidlamoqda.

Tadqiqotchi O.S.Mindrul ironiya olgan so'zda kuzatiladigan semantik o'zgarishlarini quyidagicha izohlaydi: 1. So'z ma'nosining o'zgarishi: a) butunlay qarama-qarshi ma'no yuzaga keladi; b) so'zning ijobiy baho darajasi kamayadi. 2. So'zda implitsit konnotatsiyaning paydo bo'lishi: a) so'zning ingerent salbiy baho darajasi kamayadi; b) neytral baholi so'zda salbiy baho hosil bo'ladi [7].

Tadqiqotlarda ironiyaning faqat baho salbiylashuviga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ba'zan shunday hollar bo'ladi, bunda ironiyaning ayni jihati kuzatilmaydi. Shu sababli ironiyaga faqat salbiy baho ifodasi deb qarash ma'qul emas, chunki muvofiq kontekstda ironiya salbiy bahoni ifodalamasligi ham mumkin. Masalan: professor Salohiddin Mamajonov bir maqolasida: "Adabiy tanqidchilikda yozilmagan adolatsiz bir qoida bor: u

ko'pincha to'rt-besh mashhur nomlar atrofida gir-gir aylanaveradi-yu, adabiyot rivojiga o'z ulushini qo'shgan "nomashhur"larga qiyo boqmaydi". (A.Ko'chimov "Kamtarlikning baland cho'qqisi"). Nomashhur so'zining ayni kontekstdagi okkazional ma'nosida ijobiy baho mavjud [7].

Ko'p tilshunoslar, masalan, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev, H.Homidiy, A.Hojiyev ironiyaga deyarli bir xil ta'rif beradilar. Ular fikricha ironiya o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi [5].

M.Sheraliyeva 70-80-yillar o'zbek nasrida kinoyaga moyillikning ortishiga sabab sifatida davrning ijtimoiy shart-sharoiti, ya'ni obyektiv omil va ijodkorlarimiz tomonidan personifikatsiyalangan (shaxsiylangan) ijtimoiy dard-kayfiyat, ya'ni subyektiv omillarni ko'rsatib o'tadi. Mashhura Sheraliyevaning "Hozirgi o'zbek nasrida kinoya (ijtimoiy-psixologik omillari, poetik tizimdagi o'rni)" nomli monografiyasida kinoya haqidagi nazariy qarashlar va uning 70-yillar nasrida ifodalanishi masalasi maxsus tadqiq etilgan bo'lsa-da, buni muammoni o'rganish yo'lidagi dastlabki qadamlardan biri sifatida baholash lozim. Kinoya haqida o'zbek tilshunosligida izohli lug'atlarda, tilshunos olimlarning tadqiqotlarida qisqacha to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da, maxsus va chuqur o'rganilgan emas. Bu borada faqat E.Ibragimovning tadqiqoti hozircha yagona bo'lib turibdi [13].

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

E.Ibragimova o'z tadqiqotlarida ironiya hosil qilishning asosiy ikki turini ko'rsatadi. Bular:

1. Situativ (vaziyatli) ironiya.
2. Assosiativ (darajali) ironiya.

Vaziyatli ironiya: – *Ha, qori aka, yana mullalikmi? – Meni ko'rgan Shoim quvnoq tortib o'rnidan turadi. – Derazangni shuncha chertaman – sado chiqsa-chi! Berilib ketibdilar-da, ke qo'y, diqqatlarini buzmayin endi deb, keyin Farhoddan aytib yubordim.*

– *Ha, shunday biro z...*

– *O'zi to'rt-besh kunlik kanikulga kepti-yu, tag'in kitobga yopishib olganini! Yo, o'qishning o'rniga u yoqda, a?... Rostini aytsam...*

– *Rostini ayt, rostini ayt, - deya Tilloga o'xshab uning jig'iga tegmoqchi bo'laman [3].*

Qori, mulla so'zlari ijobiy ma'noda, odatda, Islom dinidan xabardor insonlarga nisbatan ishlatiladi. "O'quvchi, Qur'onni qiroat bilan yoddan

o'quvchi kishi.

1. Qur'onning barcha suralarini yod olgan va ularni qiroat bilan o'quvchi shaxs. 2. Ko'zi ojiz, ko'r kishi (hurmat yuzasidan ularni shunday atashadi)" [12]. Keltirilgan jumlada "qori aka", "mullalikmi" so'zlari orqali kitob o'qishga mukkasidan ketgan, kitobni qo'lidan qo'ymaydigan bolaga kesatiq qilinyapti. Kesatiq ham ironik mazmun ifodalashning unumli usullaridan biridir.

Darajali ironiya: *Amakisi armiyaga ketmasdan oldin rayon markazidagi "tir"da ishlardi. Qishloqqa oyda bir kelar, ko'chamizda ko'rindi deguncha, uning tashrifiga mushtoq bo'lib turgandek qo'shni xotin-xalaj darvozalar tirqishi-yu devorlar kemtigidan mo'ralashga tushar – guzarda ikki-uch kunlik mish-mishga mo'may mavzu topilar edi.*

– *Sochi xuddi yelkasiga tushgan-a, yopira-ay! Jamalak taq endi, dedim!*

– *Cholvorini aytmaysizmi – balog'i to'rvaday, yer supuradi. Tag'in deng, pochasiqa zanjir tiktirgan!*

– *Belidagi kamarini ko'rmabsiz-da, usta, otning ayili deysiz.*

– *Ko'rdim, ko'rdim. Cholvorining kissalariyam bir ajabtovur.*

– *Ko'ylagi-chi, Norgul qo'shnochning mushkulkushodda kiyadigan libosidan nusxami-ey? [3]*

"Fayzining amakisi" asaridan olingan yuqoridagi parchada Fayzining amakisi xotinlar tarafidan "ta'rif" etilmoqda. Sochidan boshlangan mazax darajama-daraja cholvorining pochasi-yu kissalari asta-sekin ko'ylagiga o'tiladi. Ayollarning kiyimiga o'xshashi va sochiga jamalak taqishni maslahat berishlari bilan "ta'rif" davom etadi. Ayollarning zaharxanda kulgilaridan bilib olishimiz mumkinki, bu parcha gradual ironiyaning yorqin namunasi bo'la oladi. Jamalak – qizlarning kokili hisoblanadi. "Jamalak – 1. Qiz bolalarning hali uncha o'smagan, yoyilib ketmasligi uchun, paxta pilik qo'shib o'rilgan sochlari. 2. Folk. Soxta kokil. 3. Shv. Sochga taqiladigan ziynat asbobi; sochpopuk" [9]. Qahramonning ustidan mazax qilish Norgul qo'shnochning mushkulkushodga kiyadigan libosiga o'xshashi bilan cho'qqisiga chiqadi. "Qushnoch – 1. Sannash, ko'chirmachilik bilan kasal boquvchi tabib. 2. Karomat qiluvchi, fol boquvchi, folbin" [12]. "Mushkulkoshod arabcha-forscha so'zdan olingan bo'lib, qiyinchiliklarni hal qilish,

bartaraf etish degan ma'noni bildiradi. Kishining mushkulini oson qilish, ishini yurgizish maqsadida qilinadigan duo va irim-sirimlar va uni o'tkazish yig'ini" [9].

O'zbek tilida ironik mazmun ifodalashning asosiy usullari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: kinoya, kesatiq, piching, qochirim, kulgi, zaharxandalik, istehzo, masxara, mazax, ermak, shama, ilmoq, uchuruq, luqma. Bundan tashqari arab tilidan kirgan "tajohili orifona", "ta'riz" leksemalari ham teskari ma'no ifodalash usullarining nomlari bo'lib, ta'riz pichingga, tajohili orifona esa, qochirimga sinonim sifatida qo'llanadi.

Ironik mazmun ifodalashning eng yuqori kulminatsion nuqtasiga yetkazilgan usuli uslubshunoslikda sarkazm deyiladi. Sarkazm o'ta salbiy munosabat ifodalash usuli bo'lib, unda achchiq zaharxandalik, masxaralash, mazax, qahrg'azab ochiq-oydin sezilib turadi. Ilmiy adabiyotlarda ironiyaning bir ko'rinishi sifatida antifraza tushunchasi ham mavjud. Salbiy munosabatning bu turida ham o'tkir masxaralash, piching, kesatish ma'nolari kuchli bo'ladi. Lekin antifraza ironiyaning zaharxandalik, kinoya, kesatish, piching kabi ko'rinishlaridek keng qamrovli emas [5].

Kinoya: "Dilfuzaning ko'ngli biroz taskin topdi. Demak, dadasi hali kelmadibdi.

Jayam yosh bola emas, - dedi Vasila Nazarovna kinoyali ovozda. – Ancha narsaga aqli yetadi... Avval borsin, Komsomol majlisida gaplashamiz" [4].

Shama: Kolxozchi xotinlardan biri lektordan "Nima uchun bizning kolxozda ham xotin-xalajga bir ko'z bilan qaraladi-yu, erkaklarga boshqa ko'z bilan qaraladi?" – deb so'radi...

Qayerdandir chiqqan ovoz uning tovushini bosib ketdi:

- Suv boshidan loy, egachi, idorani ko'rmaysizmi, qilichday-qilichday yigitlar rohati badan ko'ylak kiyib, cho't qoqib o'tirishibdi. (A.Qahhor).

Misolimizdagi "suv boshidan loy" frazeologik iborasiga diqqatimizni jalb qilmoqchi bo'lsak, unda rahbar xodimlarga piching qilinib, bu orqali tog'ni urib tolqon qiladigan yigitlarga shama qilingan va ularning idorada cho't qoqib o'tirishi tanqid qilinib qoralangan.

Antifraza: "Uning bitta-yu bitta o'rtog'i bor. Bu xotin to'g'risida mulla Norqo'zi shunday fikrda

agar farishta ilgari o'tgan bo'lsa – shuning onasi, endi tug'ilsa – shuning bolasi bo'ladi, agar hozir yer yuzida bo'lsa – shu xotinning o'zi. Shuncha keladi, haftalab, o'n kunlab turib qoladi, nainki shu choqqacha mulla Norqo'ziga tovushini eshittirmasa! Shariatni mahkam ushlagan xotin shaharda ikkita bo'lsa, biri – mulla Norqo'zining xotini, ikkinchisi – shu!" [1] Bu so'z asosida butunlay teskari ma'no ishlatilgan. O'quvchiga "farishta" deb izohlanayotgan kishi aslida farishtasifat inson emas, balki sharm-u hayosiz, iflos kishi bo'lib, ayol qiyofasiga kirib olgan, mulla Norqo'zining xotini bilan o'ynashib yuruvchi erkak zoti vakilidir.

Istehzo: "Ahli majlis Otabekni ko'klarga ko'tarib maxtar edi, lekin Homid bu maxtashlarg'a ishtirok etmas va nimadandir g'ijingandek ko'rinar edi. Shu orada qutidorning "uylanganmi?" deb Hasanalidan so'rashi Homidga yana boshqacha holat berdi. Hasanalining so'rag'uchig'a bekning qiz yoqdirmaslig'ini sabab ko'rsatib, shu kungacha uylanmay kelganligini tafsili bilan hikoya qilib berishidan so'ng ul toqatsizlang'andek bo'ldi:

Balki begingizning tama'lari xon qizidadir, - dedi istehzo bilan Homid, - bundog' yigitlar uylanlarida ham kishi qizini umr bo'yi azob ichida o'tkazadilar..." [2]

Kesatiq: "Jo'raqulboyning inisi To'raqulboy kattaroq o'qishga kirarmish", deb eshitib edik. Qaysi kuni cho'lda ko'rib qoldim... cho'ldagi o'qishda, shekilli? – Toshkentda emas ekanmi? Kari-fari olamga sig'mas edi-ku uning, nima bo'пти? – Yiqilibdi-da. – U yoq-bu yog'i sinmabdimi ishqilib? – Har qalay, biroz lat yegan bo'lsa kerag-ov... [3]

To'raqulboyning ortiqcha maqtanishi uning mazax qilinishiga sabab bo'lmoqda. Kattaroq o'qishga kiraman deb cho'ldagi o'qishda "o'qiyotgan" qahramonimiz "yiqilib" hammaga kulgiga qoldi. "Lat yegan bo'lsa kerag-ov", deya piching qilishlari ham shundan. Keltirilgan misolda ham masxaralash, mazax ochiq-oydin ko'rinish turibdi, shundan kelib chiqsak, keltirilgan namunani ilmoq sifatida ham olishimiz mumkin. Ironik mazmunni yuzaga keltirishda fonema, leksema, frazemalar yetakchilik qilgan.

Piching: O'qituvchilardan Turna piyon araq ichadi, Safarov sigaret chekadi, Turobadze kutubxonachi qiz bilan yuradi, Josus Hojiqulov "matematik"ni yigirma bir tarsaki urgan... va hokazo va hokazo ...

Lekin baribir dars oxiridagi nasihat pallalarida ular qo'llarini stol chetiga tirab, qo'ng'iroq chalinguncha "O'qituvchining qilganini emas, aytganini qil!" deya o'git berishadi.

Biz – men, faylasuf Umar, "matematik" Akbar esa ularning aytganini emas, qilganini qilamiz: ichamiz, chekamiz; men Risolat bilan, Umar Ozoda bilan Akbar Malika bilan yuradi...[3]

Ko'rinib turganidek ironik mazmun ifodalash usullari turli xil. Yuqoridagi parchada ham ularning ayrimlariga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Turna piyon", "Turobadze", "Josus Hojiqulov" kabi leksemalar vosita piching ifodalangan. "Piching – birovning shaxsiga tegish, g'ashini keltirish, masxaralash uchun aytilgan ilmoqli gap; qochirim, qochiriq" [10]. Piyon deyilishiga sabab uning ichkilikka ruju qo'yganida, "Turobadze" hammaning ismiga adze birligini qo'shib aytgani uchun bu o'ziga ham "taqab" qo'yilgan. Hojiqulov esa o'z ishi qolib doimo boshqalarning ortidan "josuslik" qilish bilan ovora, shu sababli bu "unvon"i uning ismiga aylangan. "Josus arabcha so'zdan olingan bo'lib, ayg'oqchi; xufiya; xabarchi degan ma'nolarni bildiradi. Josus – biror davlat haqida maxfiy ma'lumot to'plash bilan shug'ullanadigan shaxs; ayg'oqchi, shpion" [9]. "Josus Hojiqulovni" sarkazm namunasi sifatida olishimiz ham mumkin. "Sarkazm yunoncha sarkasmos, sarkaro so'zlaridan olingan bo'lib, go'shtni nimtalayman, uzib, yulib olaman degan ma'nolarni bildiradi. Sarkazm – satirik tasvirda fosh etuvchi murosasiz kulgi, istehzoli ta'na asosiga qurilgan fikr-mulohaza; badiiy uslub vositalaridan biri" [10].

Bu parchada kinoya ham mavjud bo'lib, "nasihat pallalari" birikmasi orqali ifodalangan. Shu bilan bir qatorda "o'git" berishlari ham kinoya ostiga olingan.

"Faylasuf Umar" va "matematik Akbar" birliklarida esa shamani kuzatishimiz mumkin. "Faylasuf yunoncha philosophos so'zidan olingan bo'lib, donolikni sevuvchi degan ma'noni bildiradi. Faylasuf – 1. Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug'ullanuvchi olim, mutaxassis. 2. Donolar kabi muhokama yurgizadigan; donishmand" [11]. Faylasuf so'zi orqali Umarning ko'proq kitob o'qishiga shama qilingan. "Matematik Akbar" birikmasida esa shama bilan bir qatorda, antifrazani ham kuzatish mumkin. Antifraza so'zni tamoman aks ma'noda qo'llash. "Matematik – matematika olimi, mutaxassisi" [9]. "Matematik Akbar" deya

kesatq qilinishiga sabab Akbar matematikani tushunmaydi, mutlaqo bilmaydi, bahosi ham doimo "ildiz ostida 4".

**-Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi tilning estetik vazifasini yuzaga chiqarishda, umuman olganda, badiiy matnni tahlil etishda qimmatli manbalar hisoblanadi. Badiiy matnda yozuvchining maqsadini aniq namoyish qilishida ularning o'rni beqiyosdir. Ironiya ham shunday vositalar sirasiga kiradi. Ironiya badiiy asarning yanada ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, yozuvchining mahoratini ko'rsatib beruvchi omil hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari. 2019, -B7.
2. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016. – B. 20.
3. Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. –B. 200.
4. Hoshimov O'. Qalbingga quloq sol. Elektron kutubxona. – B.97.
5. Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari. Filol.fan.n.diss. 6918/2001.
6. Mueske D.C. The compass of irony. – London: Methuen d LTD, 1969. C.10. – P.276.
7. Odilov Y. O'zbek tilida enantiosemiya. Dis-232/2016. –B. 86.
8. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. -B. 241.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2006. – B. 67.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom. 2006. – B. 450.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 4-tom. 2006. – B. 320.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 5-tom. 2006. – B. 341.
13. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 24.